



Boshlang'ich sinf o'quvchilarini grammatik taxlilga o'rgatish

*Andijon viloyati Buloqboshi tumani
13-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
Boyboboyeva Dilfuzaxon*

Annotatsiya: ishimizdada maktab o'quvchilariga lingvistik bilim berishda ona tili darsliklaridagi grammatik mashqlarning o'rni va uning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: grammatik tahlil, sof morfologik mashq, sof sintaktik mashq, *analitik mashq, sintetik mashq.*

Hozirgi kunda ona tili ta'limining oldiga qo'yilgan maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish bilan birga lisoniy hodisalarni anglash ularni bir-biridan farqlash, olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda o'qituvchining ilmiy salohiyati, pedagogik mahorati bilan bir qatorda darsliklarda berilayotgan mavzularga oid mashqlarning shu mavzuga har tomonlama mos tushishi ham alohida ahamiyatga ega. Olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashda mashqlarning o'rni beqiyosdir. Har bir mavzuning mazmunidan kelib chiqib tanlangan mashqlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini orttirishi bilan bir qatorda olgan bilimlarining puxta o'zlashishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Grammatik tahlilga o'rgatishda ko'plab usul va metodlardan foydalanish mumkin. Bunda, albatta, grammatik mashqlarning o'rni beqiyos.

Grammatik mashqlar turli asosga ko'ra tasnif qilinadi, shuning uchun mashqning har xil turi hosil bo'ladi. Agar bilimni shakllantirish xarakteriga asoslanilsa, grammatik mashqlar ikki katta guruhga bo'linadi:

- 1) morfologik mashqlar (bunga leksik-morfologik mashqlar ham kiradi);
- 2) sintaktik mashqlar.



Mashq jarayonida o'quvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa, mashqlar analitik, sintetik, taqqoslashga, guruhlashga, umumlashtirishga oid mashqlarga bo'linadi.¹

Mashqning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan so'zlardan gap tuzishni va gap bo'laklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga ko'ra sintaktik mashq, faoliyat xarakteriga ko'ra sintetik-analitik mashq hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam qo'llaniladi, shuning uchun ham vazifaning yetakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, matnga mazmunga mos otni qo'yish, qaysi kelishik ekanini ko'rsatish talab etilsa, bu leksik-morfologik mashqdir. O'quvchi otning qaysi kelishikda ekanini aniqlashi uchun u bog'langan so'z (fe'l yoki ot)ni aniqlashi (so'z birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga ko'ra bu mashq sintaktik-morfologik mashq hisoblanadi.

Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil so'z turkumiga ko'ra (morfologik) tahlilni, gap bo'laklariga ko'ra (sintaktik) tahlilni o'z ichiga oladi.

Gap bo'laklariga ko'ra tahlil o'quvchilar o'zlashtirgan sintaktik bilimlarning me'yoriga qarab chuqurlashib boradi. Yuqori sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashqlar ko'plab berilgan. Masalan, 8-sinf ona tili darsligida berilgan ushbu mashq sof sintaktik mashqqa misoldir:

66-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Kesimlarini aniqlab, ikki guruhga ajrating:

- 1) bir so'z bilan ifodalangan kesimlar;
- 2) birdan ortiq so'zdan iborat kesimlar.

¹ Sh. Yo'ldosheva, U. Masharipov, D. Xudoyberdiyeva Boshlang'ich sinf o'quvchilarini lisoniy tahlilga o'rgatish. Qo'llanma. Toshkent – 2012.



1. Haqiqat shunchalar achchiqki, odatda, ziravor sifatida xizmat qiladi. (Vladislav Gjechik) 2. Yolg'on yondirar, haqiqat qondirar. (Maqol) 3. Rostlik – do'stlik, yolg'onchilik – ko'rgulik. (Maqol) 4. Yolg'on, ko'pincha, ikkiyuzlamachilikdan emas, befarqlikdan kelib chiqadi. (Andre Morua) 5. Ishda to'g'rilik birovning nafsiga, moliga xiyonat qilmaslik, so'zda to'g'rilik har vaqt rost so'zlamaklikdur. (A.Avloniy) 6. Haqiqatdan qo'rqan odam yolg'onning panasiga berkinadi. (O'.Hoshimov)

Ushbu mashq sintaksis bo'limining o'rganish obyekti bo'lgan gap bo'laklari yuzasidan bo'lib, o'quvchilarni sodda va tarkibli kesimlarni ajrata olishlariga, 8-sinf darsligida berilgan kesim va uning tuzilishiga ko'ra turlari yuzasidan berilgan nazariy ma'lumotlarni mustahkam o'zlashtirishlariga asos bo'ladi. Mashq quyidagi tartibda bajariladi:

1) **bir so'z bilan ifodalangan kesimlar:** yondirar, qondirar, do'stlik, ko'rgulik, berkinadi.

2) **birdan ortiq so'zdan iborat kesimlar:** xizmat qiladi, kelib chiqadi, xiyonat qilmaslik, rost so'zlamaklikdur.

Kesimlarni so'roqlar berish yordamida aniqlaydilar va bir soroqqa javob berayotgan kesimlarni ajratib oladilar. So'ng ular bir yoki bir necha so'zdan iboratligiga ko'ra mashq topshirig'iga binoan ikki guruhga ajratadilar. Bunga darslikda berilgan ushbu nazariy ma'lumot asos bo'ladi: Birdan ortiq so'zdan iborat kesim murakkab kesim deyiladi: 1. O'zbekiston – **kelajagi buyuk davlat**. 2. ... xiyonatdan zarar **hosil bo'lur**. (A.Avloniy) 3. To'y – bahor kelganda. 4. Hamma gap – **mening yo'qligimda**. Yordamchi so'zlar (ko'makchi fe'l, bog'lama, nisbiy so'z va b.) ham murakkab kesimni shakllantiradi².

Xuddi shu qoidaga muvofiq murakkab “xizmat qiladi”, “xiyonat qilmaslik” kesimlari qo'shma fe'l bilan; “rost so'zlamaklikdur” kesimi so'z birikmasi bilan ifodalanganini aniqlaydilar.

² M. Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2019. 54-55-betlar.



Yuqori sinf ona tili darsliklarini kuzatganimizda undagi grammatik mashqlarning aksariyati sof morfologik va sof sintaktik mashqlar ekaniga guvoh bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G`ulomov A., Ne'matov H. "Ona tili ta'limi mazmuni". T., "O`qituvchi" 1995.
2. Sh. Yo'ldosheva, U. Masharipov, D. Xudoyberdiyeva Boshlang'ich sinf o'quvchilarini lisoniy tahlilga o'rgatish. Qo'llanma. Toshkent – 2012.
3. M. Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2019.